

O'ZBEK TILIDA MURAKKAB GAP VA MURAKKABLAHSHGAN GAPNING MAZMUNYIY XUSUSIYATLARI

Shodmonov Muhammadsodiq

Alfraganus universiteti

Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilidagi murakkab gap va murakkablashgan gap kategoriyalarining mazmuniy va shakli xususiyatlari tahlil qilinadi. Tilshunoslikdagi bu sohaga doir ilk izlanishlar haqida ma'lumotlar beriladi. Murakkab gap va qo'shma gap farqlari va murakkab qo'shma gapni tuzishda sodda gaplarning roli haqida fikr yuritiladi. Qo'shma gaplarni tashkil etishda sodda gaplardan, murakkablashgan sodda gaplarni tashkil etishda esa undalma, kirish so'z, kiritma, ajratilgan bo'laklar, sifatdash ravishdosh, harakatnoma va uyushiq bo'laklar yordamida shakllanishi misollar yordamida ochib beriladi.

Abstract. The article analyzes the semantic and structural features of the categories of complex sentences and complicated simple sentences in the Uzbek language. It provides information on the earliest studies in this field of linguistics. The differences between complex and compound sentences, as well as the role of simple sentences in the formation of compound-complex sentences, are discussed. It is also demonstrated, with examples, that compound sentences are formed on the basis of simple sentences, while complicated simple sentences are shaped through the use of parenthetical words, introductory elements, insertions, detached parts, participles, adverbial participles, verbal nouns, and coordinated parts.

Kalit so'zlar: Murakkab gap, murakkablashgan gap, qo'shma gap, sodda gap, undalma, kirish so'z, ajratilgan bo'lak.

Keywords: Complex sentence, Complicated simple sentence, Compound sentence, Simple sentence, Vocative, Parenthetical word, Detached part.

Kirish.

O'zbek tilshunosligida sintaksis sohasi doimo dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Gaplarning tuzilishi, ularning mazmuniy munosabatlari va murakkablashish jarayonlari tildagi ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, murakkab gap va murakkablashgan gap kategoriyalarining o'zaro farqlari hamda mazmuniy xususiyatlarini tahlil qilish, bugungi tilshunoslik nazariyasi uchun muhim masalalardan sanaladi. Ushbu maqolada murakkab gap va murakkablashgan gapning semantik mohiyati, farqli va umumiy jihatlari ko'rib chiqiladi.

Tuzilishi jihatidan sodda gaplarga o'xshash bo'lgan ikki yoki undan ortiq komponentning mazmun va intonatsiyaga ko'ra birikuvidan tashkilotgan gaplar qo'shma gap deyiladi. Sodda gap bilan qo'shma gap o'rtasidagi asosiy farq birinchidan, ularning tuzilishiga ko'ra bo'lsa, ikkinchidan, ularni tashkil etgan qurilish materialining

turliligidadir. Sodda gap birgina konstruktiv birlikdan tashkil topadi. Qo'shma gapda esa bir-biri bilan uzviy bog'langan bir necha konstruktiv markaz bo'ladi. Sodda gapning qurilish materiali so'z yoki so'z birikmasi bo'lsa, qo'shma gapning qurilish materiali soda gaplardir.¹⁰

Sodda gapning tarkibida undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo'laklar qatnashib, Sodda gapni ham shakily, ham mazmuniy tomondan murakkablashtiradi.

O'zbek tilshunosligida murakkablashgan gaplar birinchi bo'lib Prof. G'.Abdurahmonov tomonidan murakkab gaplar atamasi ostida ajratiladi va bunday gaplar sodda gaplar bilan qo'shma gaplar oralig'idagi gap deb keltiradi.¹¹

Yuqorida keltirganimiz kabi qo'shma gaplar ikki va undan ortiq sodda gaplarning birikuvidan hosil bo'ladi. Qo'shma gaplar har doim ham ikki sodda gapning birikuvidan tashkil topavermaydi. Ular uch va undan ortiq sodda gaplarning birikuvidan tuzilishi ham mumkin. Bunday gaplar qo'shma gapning murakkab turini tashkil qiladi. Murakkab fikr sodda gaplarda ham berilishi mumkin. Xususan, murakkablashgan sodda gaplar ana shunday xarakter kasb etadi. Maslan: Oyim talmovsirab, goh menga, goh Hoji buviga qarar edi. ("Dunyoning ishlari") gapi sodda gapdir.¹²

Sodda gapning tarkibidagi bo'laklar undalmalar, kirish, kiritmali qurilmalar, ajratilgan bo'laklar, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomli tizimlar qatnashib, sodda gapni ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan murakkablashtiradi. Bunday gaplar murakkablashgan sodda gaplar deb ataladi.¹³ Shuningdek, uyushiq bo'laklar ham sodda gapni murakkablashgan sodda gapga o'zgartiruvchi vositadir. Quyida ushbu murakkablashtiruvchi vositalar ishtirok etgan gap misolida ko'ramiz:

Undalma ishtirokida murakkablashgan sodda gap: Hoy sen, menga qarab yubor.

Kirish so'z ishtirokida murakkablashgan sodda gap: Shubhasiz, biz kutgandan yaxshi chiqadi.

Kiritma qurilmalar ishtirokida murakkablashgan sodda gap: Toshkent (ya'ni O'zbekistonning poytaxti) – yirik sanoat markazidir.

Ajratilgan bo'lak ishtirokida murakkablashgan sodda gaplar: Mening hayolimga yaqin do'stim Muhammadaziz (Yoqub raisning o'g'li) keldi.

Sifatdosh o'ramli murakkablashgan sodda gap: Bu romanni yozgan inson buyuk yozuvchi.

Ravishdosh o'ramli murakkablashgan sodda gap: U jilmayib, xonaga kirib keldi

Harakat nomi o'ramli murakkablashgan sodda gap: Kitob o'qish inson tafakkurini boyitadi.

Uyushiq bo'lak ishtirokida murakkablashgan sodda gap: Bog'imizda anor, tut, olxo'ri, o'rik va olma daraxti yetishtirmoqdamiz.

¹⁰ A.G'. G'ulomov, M.A.Asqarova Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksis. "O'qituvchi" nashriyoti T – 1995

¹¹ N.Mahmudov, A.Nurmonov O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksi) "O'qituvchi" nashriyoti T – 1995

¹² Ne'matova Malika O'ZBEK TILIDA MURAKKABLAHGAN QO'SHMA GAPLAR TAHLILIGA OID... EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Volume 2 Issue 3, March 2022

¹³ Raximova Ro'shana. Tilshunoslikda murakkablashgan sodda gaplarning o'rganilishi va murakkablashtiruvchi vositalar www.tadqiqotlar.uz 14-to'plam 2-son dekabr 2024

Xulosa

O'zbek tilida murakkab gap va murakkablashgan gap kategoriyalarining o'zaro farqlari, semantik va struktur jihatlari til tizimining boyligini ko'rsatadi. Murakkab gap sodda gaplarning birikishi asosida yuzaga kelsa, murakkablashgan gaplar esa undalma, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo'laklar, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi hamda uyushiq bo'laklar yordamida shakllanadi. Shu jihatdan ular sodda va qo'shma gaplar orasida o'ziga xos o'rin egallaydi.

Tilshunoslikdagi ilk izlanishlardan boshlab murakkab va murakkablashgan gaplarni farqlash, ularning shakl va mazmunini o'rganish sintaksisning asosiy masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu maqolada keltirilgan nazariy mulohazalar va amaliy misollar murakkab gaplarning tildagi ifoda imkoniyatlarini yanada keng ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. A.G'. G'ulomov, M.A.Asqarova Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksis. "O'qituvchi" nashriyoti T – 1995
2. N.Mahmudov, A.Nurmonov O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksi) "O'qituvchi" nashriyoti T – 1995
3. Ne'matova Malika O'ZBEK TILIDA MURAKKABLAHGAN QO'SHMA GAPLAR TAHLILIGA OID... EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Volume 2 Issue 3, March 2022
4. Raximova Ro'shana. Tilshunoslikda murakkablashgan sodda gaplarning o'rganilishi va murakkablashtiruvchi vositalar www.tadqiqotlar.uz 14-to'plam 2-son dekabr 2024